

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ MD-5A112001-2.02
“___” 2019 yil



JISMONIY MADANIYAT SOTSILOGIYASI
fanining
O'QUV DASTURI

(magistratura bosqichining barcha yo'nalishlari uchun)

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000 – Pedagogika
Magistratura mutaxassisligi:	5A112001 –Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi

Samarqand – 2019

Fanning o'quv dasturi Samarqand davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti kengashida ko'rib chitilgan va tavsiya qilingan (2019 yil 27
05 dagi 10-sonli bayonnomasi).

Fakultet dekani:


dots.B.B.Kipchakov

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Z.B.Boltayev

- Samarqand davlat universiteti Sport turlarini o'c metodikasi kafedrasи pedagogika fanlar nom professor v.b.

Shopulatov A.N.

O'zDJTSU, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasи dotsenti

Taqrizchilar:

Eshnazarov J.E

pedagogika fanlari nomzodi, professor

Latipova N.M. - O'zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv uslubiy kengashining 2019-yil 03 04 dagi 10-son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv uslubiy Kengash raisi:



prof.A.S.Soleev

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizni dunyo sahnasiga olib chiqishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Ayniqsa sportda erishayotgan natijalarimiz xalqimizning buyuk o‘tmishini, madaniyatini dunyoga tanitmoqda. Shuningdek, hozirda jismoniy madaniyat va sport har qachongidan ko‘ra jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Uning sababi birinchidan, jismoniy madaniyat va sportning inson salomatligini ta’minlashda o‘rni beqiyos bo‘lsa, ikkinchidan, chiroyli qiyofa, kuchga egalik, hamda ushbu omillar mavjud bo‘lgan insoning uylash, fikrlash qobilyatining o‘sishiga ijobiy ta’siri hisoblanadi. Ya’ni, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullangan inson o‘z mukammalligini his qiladi. Oldiga qo‘ygan yoki bugungi zamon talab qilayotgan vazifalarni bemalol amalgalash oshira oladi.

Jismoniy madaniyat va sportning rivojlanishi rivojlangan mamlakatlarda ko‘proq ko‘zatilayotgan bo‘lsada, ushbu rivojlanishning ta’siri bevosita rivojlanayotgan mamlakatlarga ham kirib kelmoqda. Biroq, ushbu rivojlanishning ko‘lami hududlar, mintaqlar, davlatlar, xalqlar, madaniyatlar kesimida olib qaraganda bir tekisda yoki bir-xil darajada ro‘y bermayapti. Albatta, buning sababi birinchi navbatda iqtisodiy imkoniyat bilan belgilansada, unda ijtimoiy-madaniy omillarning o‘rni ham kattadir.

Ijtimoiy-madaniy omillar qatoriga qadriyatlar, turmush-tarzi, madaniyat, din, milliy xarakter, tafakkur tarzi va xalqlarning o‘ziga xos boshqa jihatlarini kiritish mumkin. Jismoniy madaniyat va sportda ushbu omillarning soha taraqqiyotidagi o‘rni, ahamiyati va ta’siri kabi holatlarini o‘rganish zaruriyatining mavjudligi yoki vujudga kelishi jismoniy tarbiya va sportga ilmiy yondoshuvning yanada kuchaytirmoqda. Shuning uchun ham jismoniy madaniyat va sportdagi jarayonlarni ilmiy tadqiqotlar asosida o‘rganish, jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda muammolarni echimini topish, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jismoniy madaniyat va sportdagi ijtimoiy-madaniy muammolarni tadqiq etishda sotsiologik tadqiqotlardan keng qo‘llanilmoqda. Bu esa sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish, tuzish, natijalarni tahlil qilish metodlarini o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fani asosida sotsiologik tadqiqotlarni jismoniy tarbiya va sportda keng qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi bilimlar berilishi bilan birga, sotsiologik tadqiqot turlari, ularni tashkil etish, natijalarni tahlil qilish bo‘yicha ilmiy-nazariy fikrlar ham shakllantiriladi. Yosh mutaxassis sotsiologik tadqiqotlar mohiyatini o‘rganishi orqali jismoniy madaniyat va sportning mohiyati va muzmuniga chuqr kirib boradi.

Mamlakatimizda jismoniy madaniyat sotsiologiyasini rivojlantirish joylarda sport turlarida yuzaga kelayotgan muammolarni yoki ma’lum bir sport turining rivojlanmayotganligi sabalarini aniqlash, o‘rganish, tadqiq etish imkonini beradi. Shuningdek, bu sohani rivojlantirishda malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Samarqand davlat universitetida “Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi” fanini tashkil qilib o‘qitish bo‘lajak malakali mutaxassislarning sport sohasida bilimlarini yanada oshirishiga xizmat qiladi. Qolaversa, ular mehnat faoliyatlarini

davomida yoshlarning ma'lum sport turiga qiziqishlarini o'rganib, ularni tayyorlashda, shu sport turining ommaviy lashishida hamda yoshlarning unga bo'lgan qiziqishlarining ortishida "Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi" fani doirasida berilayotgan bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dastur "Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi" fani qo'lga kiritgan ilmiy yutuqlar asosida hamda O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport sohasini rivojlantirish yo'lida qilinayotgan harakatlarni hisobga olgan holda tuzildi.

Dasturda jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fan sifatida shakllanishi, uning tarkibiy tuzilishi, jismoniy madaniyat va sportga ijtimoiy institut sifatida yondoshish, jismoniy madaniyat va sportning ijtimoiy funksiyalari, sotsiologik muammolari, sport faoliyatining sotsiologik muammolari, olimpizm harakatlarining rivojlanishi, sport va shaxsning ijtimoiylashuvini ifodalaydigan mavzular yoritilgan.

Dasturning yakunlovchi qismida jismoniy madaniyat va sportda empirik sotsiologik tadqiqotlarni olib borishga bag'ishlangan mavzu tavsiya qilingan. Bunda jismoniy tarbiya va sportda keng o'rinni olgan sotsiologik ma'lumotlarni toplash, ularni qayta ishslash hamda tahlil qilish uslublariga ham e'tibor qaratildi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fani asosida sotsiologik tadqiqotlarni jismoniy tarbiya va sportda keng qo'llash ko'nikmalarini, sotsiologik tadqiqot turlari, ularni tashkil etish, natijalarni tahlil qilish bo'yicha ilmiy-nazariy fikrlar shakllantirish.

Fanning vazifalari - talabalarga joylarda sport turlarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni aniqlash, o'rganish, tadqiq etish bo'yicha bilimlar berish, hamda jismoniy madaniyat va sport taraqqiyotidagi ijtimoiy muammolarni sotsiologik nuqtai nazardan tushuntirish hamda fanning dolzarb masalalarini echishning uslub va uslubiyotlarini, sotsiologik tahlil va tavsiyanomalar yaratishni o'rgatish.

Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

"Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida Talaba:

- Jismoniy madaniyat va sport jamiyat yaxlit ijtimoiy tizimining bir qismi ekanligi, shaxs ijtimoiylashuvida jismoniy tarbiya va sportning roli, jismoniy tarbiya va spordagi ijtimoiy hodisalar va muammolarga sotsiologik yondashishni **bilishi kerak**.

- Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fanini mustaqil ijtimoiy fan sifatida shakllanishining tarixiy-siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy asoslarini; Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fani ob'ekti va predmeti, uning strukturasi va fanlar tizimidagi o'rnini; jismoniy tarbiya va sportdagagi ijtimoiy taraqqiyot va uning asosiy shakllarini; shaxs ijtimoiylashuvida jismoniy madaniyat va sportning rolini;

jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jismoniy madaniyat va sportga ta’sirini idrok etish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

- jismoniy madaniyat va sportda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalarni to‘g‘ri tavsiflay olishi; jismoniy madaniyat va sportdagi ijtimoiy muammolarni tadqiq etishda sotsiologik tadqiqotlarni qo‘llay bilish; aholining jismoniy madaniyat va sportga bo‘lgan munosabatini, qiziqishini o‘rganishda, ijtimoiy-madaniy omillarning ta’sirini belgilash; o‘tkazilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.***

Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fani jismoniy tarbiya va sportdagi ijtimoiy omillarini kompleks tarzda o‘rganuvchi fan hisoblanib, jismoniy madaniyat va sport tarixi, olimpiya bilim asoslari, sport huquqi, falsafa, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, psixologiya, siyosatshunoslik, etnografiya, iqtisod nazariyası, matematika, statistika kabi fanlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Fanning jismoniy madaniyat, sport va ishlab chiqarishdagi o‘rni

Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy fan sifatida sotsiologiya fanning metodologiyasi va nazariyasiga tayanadi. Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fani jismoniy tarbiya va sportdagi ijtimoiy muammolarni o‘zining empirik bazasiga ega bo‘lgan konkret amaliy tadqiqotlari bilan kompleks tarzda tadqiq etadi.

Fanni o‘qitishda zamонавиу ахборот ва педагогик тарнолоѓијалар

Talabalarning “Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamонавиу усулларидан foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar fanning mavzulariga mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalari asosida olib boriladi.

Asosiy qism Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

Sotsiologyaning asosiy tushuncha va kategoriyalari

Sotsiologiya fanning vujudga kelishi tarixi, rivojlanish bosqichlari, ob’ekti va predmeti, strukturasi, maqsad va vazifalari, funksiyalari. Asosiy tushunchalari.

Sotsiologyaning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi. Falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, psixologiya, demografiya.

Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fan sifatida

Fanlar tizimida jismoniy madaniyat sotsiologiyasining o‘rni. Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fanining vujudga kelishi tarixi, rivojlanish bosqichlari, ob’ekti va predmeti, strukturasi, maqsad va vazifalari, funksiyalari. Asosiy tushunchalari.

Jismoniy madaniyat sotsiologiyasining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi. Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi va sotsiologiya, jismoniy madaniyat va sport tarixi, jismoniy madaniyat va sport falsafasi, jismoniy madaniyat va sport madaniyati, jismoniy madaniyat va sport psixologiyasi.

Jismoniy madaniyat sotsiologiyasining konsepsiysi

Jismoniy madaniyat va sportga ilmiy yondoshuv. Jismoniy madaniyat va sportni tizimlashtirish masalalari.

Konsepsiya doirasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, hududlarda ommalashtirish muammolari va istiqbolari.

Jismoniy madaniyat va sportning sotsiologik xususiyatlari, ularning asosiy farqlari va uyg‘unlashtirish yo‘llari

Jismoniy madaniyat va sportni yuzaga kelishining tarixiy-madaniy shart-sharoitlari. Jismoniy madaniyat va sportning sotsial tabiatini.

Sport va jismoniy madaniyat – mustaqil sotsial fenomenlar: funksional farqlar.

Jismoniy madaniyat va sport ijtimoiy institut sifatida

Jismoniy madaniyat va sportda sotsiologik yondashuvlar. Sotsiologik nazariyalarning mohiyati. Jismoniy madaniyat va sportning ijtimoiy xususiyati. Jismoniy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari. Jamiat ijtimoiy institutlari orasida jismoniy madaniyat va sportning o‘rni va roli. Shaxs ijtimoiylashuvida jismoniy madaniyat va sport.

Jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish omillari

Jismoniy madaniyat va sportning ijtimoiy-madaniy tarkibi. Jismoniy madaniyat va sportni jamiat tomonidan rivojlartirish yo‘llari. Jismoniy madaniyat va sport shaxs jismoniy madaniyati shakllanishining asosi sifatida. Jismoniy madaniyat va sport qadriyat sifatida. Jismoniy madaniyat va sport qadriyatlarini targ‘ib qilishda OAV o‘rni.

Jismoniy madaniyat va sportning sotsiologik muammolari

Jamiyat taraqqiyotida jismoniy madaniyat va sportning o‘rni. Jismoniy madaniyat va sportning zamonaviy muammolari. Shaxs jismoniy madaniyatida sotsiologik va biologik muammolar. Inson tabiatini va ijtimoiy mohiyati. Jismoniy madaniyat – madaniyatning bir qismi sifatida. Sport va milliy birlik. Ayollar salomatligida jismoniy madaniyat va sportning roli. Zamonaviy jamiyatda jismoniy madaniyat va sportga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillar.

Jismoniy madaniyat va sport - sog‘lom turmush tarzini shakllantirish garovi sifatida

Jismoniy madaniyat va sport - sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni. Sog‘lom turmush tarzi tushunchasi mazmun-mohiyati. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jahon tajribasi. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun mazmun-mohiyati.

Jismoniy madaniyat va sport tizimidagi harakatlar

Zamonaviy jamiyatda jismoniy madaniyat tizimi. Jismoniy madaniyatning tarixiy xarakteri, uni jamiyat rivojining turli bosqichlaridagi o‘zgarishlari. Jismoniy madaniyatning jamiyatda asosiy funksiya va shakllarining axamiyati. Zamonaviy avlodning jismoniy qadriyatlari va jismoniy madaniyatga bo‘lgan munosabatlarining sotsiologik tahlili

Sport faoliyatining sotsiologik muammolari

Yuqori natijalarga erishish sporti va olimpizm harakatining zamonaviy muammolari. Yuqori natijalarga erishish sportida insonparvarlik muammolari. Sportda shaxs tushunchasi. Jamiyat va shaxs taraqqiyotida itimoiy munosabatlar. Sport tarbiya vositasi sifatida.

Sportchi kar’erasi va sportchi kasbining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni

Sportchi kar’erasi tushunchasi. Sportchi kasbining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni. Sportchilar ijtimoiy moslashishidagi muammolar. Sportchi ijtimoiy mas’uliyati. Yoshlar tarbiyasida sportchilarning hamda yoshlarning sportchilarga taqlidi.

Sport va shaxs ijtimoiylashuvi

Shaxs tushunchasi. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs ijtimoiylashuvida sportning sotsial roli. Sportchi ijtimoiylashuvi. Sportchining ijtimoiy mas’uliyati.

Jismoniy madaniyat va sportda sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish metodologiyasi

Jismoniy madaniyat va sport tizimida sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish

zaruriyati. Aniq sotsiologik tadqiqotlar, metodlar. Sotsiologik tahlilning metodologik asoslari. Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning asosiy elementlari: muammoni ta’riflash; tadqiqotning maqsad va vazifalarini, ob’ekti va predmetini aniqlash; ob’ektni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; ma’lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

Jismoniy maaniyat sotsiologiyasida ma’lumotlar to‘plash metodlarining umumiy tasnifi: so‘rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o‘rganish metodlari, ularning o‘ziga xosligi.

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda darslik va uslubiy qo‘llanmalar asosida bilimlarni mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalarning bilimini oshirish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali o‘quv vositalarni tayyorlash tavsiya etiladi.

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar o‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘zlaridagi bilim, ko‘nikma hamda malakalarini amaliy jihatdan mustahkamlab boradilar.

Seminar mashg‘ulotlari uchun tavsiya etilayotgan mavzular:

1. Sotsiologyaning asosiy tushuncha va kategoriylari.
2. Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fan sifatida.
3. Jismoniy madaniyat sotsiologiyasining konsepsiysi.
4. Jismoniy madaniyat va sportning sotsiologik xususiyatlari, ularning asosiy farqlari va uyg‘unlashtirish yo‘llari.
5. Jismoniy madaniyat va sport ijtimoiy institut sifatida.
6. Jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish omillari.
7. Jismoniy madaniyat va sportning sotsiologik muammolari.
8. Jismoniy madaniyat va sport - sog‘lom turmush tarzini shakllantirish garovi sifatida.
9. Jismoniy madaniyat va sport tizimidagi harakatlar.
10. Sport faoliyatining sotsiologik muammolari
11. Sportchi karerasi va sporchi faoliyati tugagach sotsial moslashuvi muammolari
12. Sport va shaxs ijtimoiylashuvi
13. Jismoniy madaniyat va sportda sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish metodologiyasi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish shakli va mazmuni

Mustaqil ta’limning turli xil shakllari mavjud bo‘lib, bunda asosiy e’tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya’ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o‘qib o‘rganishi va shu yo‘nalish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular:

1. Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi fan sifatida shakllanish jarayonlari.
2. Jismoniy madaniyat sotsiologiyasining konsepsiyasi mazmun-mohiyati.
3. Jismoniy madaniyat va sportning sotsiologik xususiyatlari.
4. Jismoniy madaniyat va sport ijtimoiy institut sifatida.
5. Jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish omillari.
6. Jismoniy madaniyat va sportning sotsiologik muammolari.
7. Jismoniy madaniyat va sport - sog‘lom turmush tarzini shakllantirish garovi sifatida.
8. Sportchi karerasi va sportchi faoliyati tugagach sotsial moslashuvi muammolari.
9. Sport va shaxs ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari.
10. Jismoniy madaniyat va sportda sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish metodologiyasi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishslash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- fanga oid statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish;
- o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalilanligidan o‘quv mashg‘ulotlari;

“Jismoniy madaniyat sotsiologiyasi” fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, ma’ruza, taqdimot tayyorlash, esse yozish, sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy madaniyat va sportga oid asarlarini o‘qish tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari mavzularini to‘ldirishga harakat qilinishi lozim.

Dasturning informatsion–metodik ta’minoti

Dasturdagi mavzularni o‘rganishda zamonaviy interfaol metodlardan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Talabalar bilan mustaqil ishlarni tashkil qilish jarayonida hamda turli-tuman o‘quv mashg‘ulotlarida – ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy mashg‘ulotlar jarayonida mavzularga doir slaydlardan foydalanish, didaktik usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat - engilmas kuch. –Toshkent.: Ma’naviyat, 2008.-176 b.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir.-T: O‘zbekiston, 2015.-B.260-261.
3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:O‘zbekiston, 2017. – 488b.
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 9 yanvar.

II. Me’yoriy- huquqiy xujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport”gi Qonuni (14.09.2015).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagagi “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil maydagagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1533- sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4456-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 28 dekabrdagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim xamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №365 sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2015 yil 23 noyabrdagi PQ-2438-soni Qarori.

III. Asosiy adabiyotlar.

1. Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent: SHarq, 2002.
2. Aliqoriev N.S. va b.Umumi sotsiologiya. – Toshkent, 1999.
3. Abduraxmonov F.R., Saidxodjaev X.B. Sotsiologiya. Ma’ruzalar kursi. – Toshkent: O‘zRIIVA, 2000.
4. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 1994.

IV. Qo‘srimcha adabiyotlar.

1. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Adolat, 1998.
2. Lubysheva L.I. Sotsiologiya fizicheskoy kultury i sporta. – M: Akademiya, 2001. – 240 s.
3. Mullajanova M.M. va boshq. Sotsiologiya fanidan ma’ruzalar matnlari. – Toshkent: ToshDIU, 2003.
4. Nosirxo‘jaev S., Bekmurodov M., Sultonov T., Nosirho‘jaeva H. Sotsiologiya asoslari. Ma’ruzalar matni. – Toshkent: Nizomiy nom. TDPU, 2000.
5. Otamurodov S., Otamurodov Sarvar. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. – Toshkent: YAngi asr avlod, 2003.
6. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. – Toshkent, 2000.
7. Ubaydullaeva R.T., Haydarov A. Sotsiologiya tarixi. – Toshkent, 1993.
8. Umarova R., Sarkisov B. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2004.
9. Xolbekov A. SHarq va G‘arb mutafakkirlarining sotsiologik ta’limoti. – Toshkent, 1996.
10. Xolbekov A., Idirov U. Sotsiologiya: izohli lug‘at-ma’lumotnoma. – Toshkent: Ibn Sino nashr., 1999.
11. Shopulatov A.N., Ochilov O.A. Sport sotsiologiyasi.-T: O‘zDJTI nashriyoti, 2014.-B.63.
12. Shopulatov A.N. Jismoniy tarbiya va sportda sotsiologik tadqiqotlar.-T: O‘zDJTI nashriyoti, 2015.-B.70.
13. Yaqubov F.M. Tafakkur uslubining strukturaviy-funksional asoslari. –T: O‘zDJTSU nashriyoti, 2019.-B.74.

IV. Internet resurslari

1. <http://ecsocman.edu.ru> – obrazovatelnyy portal «Ekonomika, sotsiologiya, menedjment».
2. <http://www.fom.ru> – fond «ObЩestvennoe mnenie».
3. <http://ihtik.lib.ru> – elektronnaya polnotekstovaya nauchnaya biblioteka.

4. <http://www.i-u.ru/biblio> - biblioteka Rossiyskogo gumanitarnogo internet-universiteta.
5. <http://www.ioa.org.gr> - ofitsialnyy sayt Mejdunarodnoy olimpiyskoy akademii.
6. <http://lib.socio.msu.ru> – biblioteka Sotsiologicheskogo fakulteta MGU.
7. <http://lib.sportedu.ru> - biblioteka RGUFK.
8. <http://lib.sportedu.ru/press/fkvot/> - arxiv журнала «Fizicheskaya kultura: obrazovanie, vospitanie, trenirovka».
9. <http://lib.sportedu.ru/press/tpfk/> - arxiv журнала "Teoriya i praktika fizicheskoy kultury".
- 10.<http://www.olympic.ru> - ofitsialnyy sayt Olimpiyskogo komiteta Rossii.
- 11.<http://www.school.edu.ru> - spravochno-informatsionnye istochniki.
- 12.<http://socis.isras.ru> - журнал «Sotsiologicheskie issledovaniya».
- 13.<http://soc.lib.ru/su> (<http://soclib.fatal.ru/lib.php>) - biblioteka «Sotsiologiya, psixologiya, upravlenie».
- 14.<http://sportcom.ru> - Informatsionnoe sportivnoe agentstvo.
- 15.<http://www.sportsovet.ru> - ofitsialnyy sayt federalnogo agentstva po fizicheskoy kulture, sportu i turizmu.